XALQ DEPUTATLARI MARHAMAT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 27-yanvar VII-4-20-1-24-K/25 Marhamat tumani

Tumanda 2025-yil uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq miqdori, mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy belgilangan miqdorlardagi soliq stavkalari, yer qaridan foydanilganlik uchun soliq stavkasi va suv solig‘i stavkalari haqida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-va 437-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi PF-6121-son Farmoni shuningdek, Xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashining 2024 yil 26 dekabrdagi VII-3-046-1-0-K/24-sonli qaroriga muvofiq, tuman soliq inspeksiyasining “Tumanda 2025-yil uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq miqdori, mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy belgilangan miqdorlardagi soliq stavkalari, yer qaridan foydanilganlik uchun soliq stavkasi va suv solig‘i stavkalari” bo‘yicha kiritgan takliflarini ko‘rib chiqib, xalq deputatlari Marhamat tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi PF-6121-son Farmoni shuningdek, Xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashining 2024 yil 26 dekabrdagi VII-3-046-1-0-K/24-sonli qaroriga muvofiq tuman soliq inspeksiyasining “Tumanda 2025-yil uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq miqdori, mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy belgilangan miqdorlardagi soliq stavkalari, yer qaridan foydanilganlik uchun soliq stavkasi va suv solig‘i stavkalari” bo‘yicha kiritgan takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Marhamat tumanda 2025-yil uchun:

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatga nisbatan belgilangan kamaytiruvchi koefitsientlar miqdori 1-ilovaga;

-mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari 2-ilovaga;

-yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy belgilangan miqdorlardagi soliq stavkalari 3-ilovaga,

-yer qaridan foydanilganlik uchun soliq stavkasi 4-ilovaga,
-suv solig‘i stavkasi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Marhamat tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limi (X.Erkaboev), tuman soliq inspeksiyasi (I.Botirov) yer solig‘i bo‘yicha tasdiqlangan soliq stavkalarini barcha soliq to‘lovchilarga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yetkazilishini ta’minlasin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati (E.Jo‘raeva) mazkur qarorni tuman hokimligining ijtimoiy tarmog‘ida hamda rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlar, sanoat, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya (B.Abdullajonov) zimmasiga yuklatilsin

Kengash raisi

MAMUROV
O‘TKIRBEK
KOMILJONOVICH

Xalq deputatlari Marhamat tumani
Kengashining
2025-yil 27-yanvardagi
VII-4-20-1-24-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatga nisbatan belgilangan kamaytiruvchi koefitsientlar miqdori

T/R	Hududlar nomi	Koefitsient miqdori (0,5 gacha kamaytiruvchi koeffitsient)	1 kv. metr uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymat (so‘mda)
1	Marhamat tumani	1,00	1 300 000,00

Yirik soliq to‘lovchilardan tashqari
1 O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412-moddasiga muvofiq, ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlar uchun soliq bazasi 1 kv.m uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymat qishloq joylarda 1200 ming so‘m miqdori belgilangan.
Qo‘llanilishi lozim bo‘lgan soliq summasi mutlaq miqdorni koefitsientga ko‘paytirish orqali aniqlanadi.

Xalq deputatlari Marhamat tumani
Kengashining
2025-yil 27-yanvardagi
VII-4-20-1-24-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari

T/R	Hududlar nomi	Koefitsient miqdori	Binolar *(umumiy maydonning1 kv.metri uchun)*	
			turar joy	noturar joy
1	Marhamat tumani	1,10	6 050,00	12 100,00

Izoh:*Mazkur stavkalar jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlariga soliq solish maqsadida qo‘llaniladi hamda ko‘chmas mulkdan tekin foydalanish shartnomalariga (yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi tuzilgan shartnomalar bundan mustasno) tatbiq etiladi*

Xalq deputatlari Marhamat tumani
Kengashining
2025-yil 27-yanvardagi
VII-4-20-1-24-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan miqdorlardagi soliq stavkalari

№	Hududlar nomi	Bir oylik soliq stavkalari (so‘mda)				
		Chakana savdo:			Maishiy xizmatlar	Boshqa faoliyat turlari
		oziq-ovqat tovarlari va nooziq-ovqat tovarlari bilan	dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan	gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan		
1	Marhamat tumani	285 000	75 000	75 000	75 000	75 000

Xalq deputatlari Marhamat tumani
Kengashining
2025-yil 27-yanvardagi
VII-4-20-1-24-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Yer qaridan foydanilganlik uchun soliq stavkasi

(tuman bo‘yicha)

T/r	Mahsulot nomi	Koefitsient miqdori	Summasi (so‘mda)
1	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	1,10	6 776
2	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	1,10	11 000
3	Marmar	1,10	22 000
5	Granitlar	1,10	33 000
6	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	1,10	17 545
7	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	1,10	5 082
8	Qum-shag‘al aralashmasi qurilish qumi, qumtoshlar	1,10	5 500

Xalq deputatlari Marhamat tumani
Kengashining
2025-yil 27-yanvardagi
VII-4-20-1-24-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Suv solig‘i stavkasi

(tuman bo‘yicha)

T/r	Mahsulot nomi	yer usti foydanilganlik uchun Koefitsient miqdori	Summasi (so‘mda)	yer osti foydanilganlik uchun Koefitsient miqdori	Summasi (so‘mda)
1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, (bundan 2-bandda ko‘rsatilganlar mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’ektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar	1,00	700	1,10	850
2	Sanoat korxonalari	1,00	700	1,10	850
3	Avtotransport vositalarini yuvish	1,00	75 000	1,00	15 000
4	Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	1,00	38 000	1,00	38 000